



UDK: 551.1/72 (575.1)

Abdulqosim RAXIMOV,
Geologiya va geofizika institutikatta ilmiy xodimi
E-mail: abdulkasimraximov@gmail.com
Farrux A'ZAMOV,
Geologiya va geofizika instituti muxandisi
E-mail: azamov82@gmail.com
Lola SADIKOVA
Geologiya va geofizika instituti laboratoriya mudiri, g.m.f.d.
E-mail: rang.tosh@rambler.ru

GFUprofessori, g.m.f.doktori Sultonov P.S. taqrizi asosida

THE HISTORY OF THE EVOLUTION OF VIEWS AND THE CURRENT STATE OF THE STRATIGRAPHY OF THE PRE-MESOZOIC DEPOSITS OF THE ZIRABULAK MOUNTAINS

Abstract

The article presents a step-by-step historical review of the stratigraphic study of the pre-Mesozoic deposits of the Zirabulak Mountains, starting from the 40s of the last century, with an analysis of previously created stratigraphic schemes, as well as belonging to various structural-formational zones (SFZ). The results of the generalization showed that so far many suites (Karachakuduk, Bulyamush, Katarmay, etc.) do not have a reliable age, volume and thickness. Analysis of the SFZ showed that the same formations belong to different SFZ.

Key words: stratigraphy, ordovician, silurian, devonian, layers, formation, subformation, structural-formational zones, organic remains.

ИСТОРИЯ ЭВОЛЮЦИИ ВЗГЛЯДОВ ИСОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ СТРАТИГРАФИИ ДОМЕЗОЗОЙСКИХ ОТЛОЖЕНИЙ ЗИРАБУЛАКСКИХ ГОР

Аннотация

В статье изложен поэтапный исторический обзор стратиграфического изучения домезозойских отложений Зирабулакских гор, начиная 40-х годов прошлого столетия, с анализом ранее созданных стратиграфических схем, а также в принадлежности к различным структурно-формационным зонам (СФЗ). Результаты обобщения показали, что до сих пор многие свиты (карачакудукская, булямущская, катармайская и др.) не имеют достоверного возраста, объемов и мощностей. Анализ по СФЗ показал, что одни и те же свиты принадлежат к разным СФЗ.

Ключевые слова: стратиграфия, ордовик, силур, девон, слои, свита, подсвита, структурно-формационные зоны, органические остатки.

ZIRABULOQ TOG'LARITOMEZOZOY YOTQIZIQLARINING STRATIGRAFIYASIGA BO'LGAN QARASHLARNING RIVOJLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya

Maqolada o'tgan asrning qirqinchi yillaridan boshlab Zirabuloq tog'lari tomezozoy yotqiziqlarini stratigrafik o'rganilishining tarixiy sharhi, stratigrafik bo'linishi, stratigrafik sxemalar va turli tuzilma-formatsiya zonalariga (TFZ) mansubligi tahlili bosqichma-bosqich bayon etilgan. Taxlil natijalari ko'pgina (qorachaquduq, bulyamush, qatormoy va bsh.) svitalar xozirgacha aniq yoshga, hajm va qalinlikka egaemasligi, TFZ taxlili bo'lsa, ajratilgan svitalar turli TFZ larga mansubligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Stratigrafiya, ordovik, silur, devon, qatlamlar, svita, kenja svita, tuzilmaviy formatsiya zonalar, organik qoldiqlar.

Kirish. Janubi-G'arbiy O'zbekistonning ko'pgina foydali qazilma konlari va ma'dan nomoyonlari tomezozoy yotqiziqlari bilan bog'liq bo'lib ularni xar tomonlama o'rganishni va bu tadqiqotlar natijasida yangi istiqbolli maydonlarni aniqlashni talab qiladi. Ammo tektonik va magmatik jarayonlar, tog' jinslarining metamorfik va metasomatik qayta o'zgarishi, kesmalarining qoplama-burmali tuzilishi natijasida tomezozoy yotqiziqlari murakkab geologik tuzilishga ega bo'lib, bu holat geologik hosilalarning yoshi, hajmi, atrofidagi boshqa hosilalar bilan munosabatlarini aniqlashda katta qiyinchiliklar tug'diradi va tadqiqotchilar tomonidan turli xil, bir-biriga zid bo'lgan talqinlar qilinishiga olib keladi. Samarqand tog'-ma'dan maydonining janubida joylashgan, hozirgi kunda foydalanilayotgan, lekin, hali yetarli darajada o'rganilmagan foydali qazilma konlari va yangi istiqbolli foydali qazilma konlarini ochish ehtimoli katta bo'lgan Zirabuloq tog'larining geologik tuzilishi ham o'ta murakkab bo'lib, quyida bu mintaqada olib borilgan stratigrafik qarashlarning qisqacha rivojlanish tarixi tahlili va hozirgi holati xaqida so'z boradi.

Asosiy qism. Zirabuloq tog'larida olib borilgan stratigrafik izlanishlar tarixini shartli ravishda 3 bosqichga ajratish mumkin.


Birinchi bosqich - 1940-1960 yillar. Zirabuloq tog'larida rejali geologik tadqiqotlar 1941yilda Ingichka volfram konining ochilishidan so'ng boshlandi. 1944-1947 yillarda mintaqada A.S. Adelung boshchiligidagi (Adelung va bsh., 1947) 1:50000 miqyosidagi geologik tasvirlash ishlari olib borildi va bu ishlar natijasida 1948 yilda A.S. Adelung va V.D. Chexovich tomonidan Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining birinchi stratigrafik sxemasi ishlab chiqildi (Rasm 1.a.). Ular bu sxemada Ziyovuddin tog'larida keng tarqalgan va Zirabuloq tog'larining shimoliy qismida ham bo'lgan paleozoy yotqiziqlarini kichikroq stratigrafik

birliklarga ajratilmagan erta paleozoy yoshidagi qatormoy to'plamiga, qolgan yuqori qismini silur davriga mansub bo'lgan o'tish gorizonti, favozit, pentomera, isfara va marginaliy qatlamlariga ajratdilar. Yotqiziqslarni bunday bo'linishiga Zirabuloq kesmalarining mintaqadan ancha sharqda, Turkiston tog'larining shimoliy (Dalyan va Kunjak daryolari) va Oloy tog'larining ham shimoliy (Isfara daryosi) yonbag'irlarida, Turkiston-Oloy tuzilmaviy-fatsial zonasida joylashgan, silur davriga mansub organik qoldiqlar bilan yaxshi izohlangan va shu vaqtda qabul qilingan qatlamlar stratigrafik birligida bo'laklarga ajratilgan [4,5,6] kesmalar bilan litologik jixatdan juda ham o'xshashligi sabab bo'ldi. Bu stratigrafik sxema K.N. Vendland va YE.M. Golovinning (Vendland va bsh., 1944) Zirabuloq tog'larida silur yoshidagi yotqiziqslardan ham yoshroq yotqiziqslar borligi xaqidagi ma'lumotlariga, yosh aniqlashda ishonchli organik qoldiqlari yo'qligiga qaramasdan, 60- yillarning boshlarigacha geologik hisobotlarda keng qo'llanildi.

1957 yilda Zirabuloq tog'larining sharqiy qismida YE.F. Smirnova va N.G. Gnidalar tomonidan 1:25000 miqyosdagi geologik syemka ishlari olib borildi (Smirnova, Gnida, 1957). Bu ishlar natijasi terrigen yotqiziqslardan devon-toshko'mir davrlariga oid *Micheevia sp.* o'simlik qoldiqlari va xuddi shu yili terrigen yotqiziqslardan YE. I. Shamsiyev tomonidan ordovik-silur davrlariga mansub braxiopodalar topilganligi xududda silur davridan qariroq va yoshroq davrlar yotqiziqslaridam borligi masalasini ikkinchi bor ko'tardi [3]. Zirabuloq mintaqasini stratigrafik o'rganilishining birinchi bosqichi bo'yicha qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak bu bosqichda birinchi marotaba xududning kamchiliklardan holi bo'lmagan holda bo'lsa ham stratigrafik sxemasi (Rasm 1a.) tuzildi va bu kelgusida mintaqa stratigrafiyasini yanada batafsilroq o'rganilishiga turtki bo'ldi.

Ikkinchi bosqich – 1960-1995 yillarni o'z ichiga oladi va na faqat Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, butun boshli Qizilqum-Nurota mintaqasi tomezozoy yotqiziqslarini stratigrafik o'rganishda eng sermaxsul bosqich bo'lib hisoblanadi.

1960 yillar boshida Zirabuloq tog'larida YE.I. Barkovskaya (Korsakov, Barkovskaya, 1964) tomonidan 50-yillarda boshlangan 1:25000 miqyosdagi geologik xaritalash ishlari davom ettirildi. Bu ishlar natijasida 1964 yilda xudud yotqiziqslarining boshqa yangi stratigrafik sxemasi ishlab chiqildi (Rasm 1b). Mintaqada YE.I. Barkovskaya guruhi bilan bir vaqtda qidiruv-razvedka ishlarini olib borgan D.M. Ogarev guruhi (Ogarev, Sokolov va bsh. 1963 y) o'zlarining yuqorida bayon etilgan sxemadan keskin farq qiluvchi stratigrafik sxemani ishlab chiqdilar (Rasm 1v). 1964 yilda YE.I. Barkovskaya va D.M. Ogarev guruhlar I.A. Pyanovskaya, K.K. Pyatkov va ko'pgina paleontologlar xamkorligida Zirabuloq tog'larida bir qancha tadqiqot marshrutlarini o'tkazdilar.



Rasm 1. Stratigrafik jadvallarning taqqoslash sxemasi [10]: 1-konglomeratlar; 2-qumtoshlar; 3-gillar; 4-gilli oxaktoshlar; 5-oxaktoshlar; 6-dolomitlar; 7-asos tarkibli vulqon tog' jinslar; 8-nordon tarkibli vulqon tog' jinslari.

Bu marshrutlar natijasida 1965 yilda xudud uchun yangi, 1964 yildagi sxemadan stratigrafik birliklar soni, yoshi va xajmi bo'yicha keskin farq qiluvchi stratigrafik sxema taqdim qilindi (Rasm. 1z). Sxemada quyi silurga mansub daraitut (S_{1n+w}) svitasining katta qismi yuqori ordovikka mansub oltiovul (O_3) svitasi bilan almashtirildi, jalqiroymaxal (S_{2ld}^1) svitasining quyi qismi va oltiovul svitasining yuqori qismida o'tish gorizonti (O_3-S_{1n}) ajratildi. Daraitut svitasining yoshi ajratilmagan yuqori silur quyi devon (S_2-D_1), jalqiroymaxal svitasi quyi devon (D_1) deb belgilandi va bu svitalar piyozi (S_{2ld}) svitasining ustiga chiqarildi. Shartli ravishda devon deb qabul qilingan tim svitasi yotqiziqslarining quyi katta qismi o'rta devonning eyfel va jivet yaruslariga ajratildi, qolgan yuqori qismi, bo'linmagan yuqori devon quyi toshko'mir (D_3-C_1) davrlariga ajratilib svita nomi saqlab qolindi [1].

C.K. Piven va A.I. Kimlar tomonidan 1975-85 yillarda (Piven, Larin va bsh. 1976; Piven, Kim va bsh. 1980, 1984) Nurota, Turkiston tizmalari va Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida Davlat geologik syemkasida qo'llaniladigan paleontologik-stratigrafik kesmalarni tuzish uchun paleozoy yotqiziqslarini biostratigrafik o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Bu ishlar natijasida topilgan organik qoldiqlar yordamida avvalgi sxemalarga o'zgartirishlar kiritildi va batafsilligi bilan ancha farq qiladigan stratigrafik sxema ishlab chiqildi. Zirabuloq tog'larida ayribel ($D_3f ar$), qo'chqorli ($D_1-p k\check{c}$) va qo'shdara ($D_1-pk\check{s}$) svitalari ajratib olindi.

1980-84 yillarda V.S. Korsakov guruxi (Korsakov va bsh., 1984) tomonidan Zirabuloq-Ziyovuddin, Qoratepa tog'lari va unga tutash bo'lgan xududlarning 1:50000 miqyosdagi aerofotogeologik xaritasini tuzish ishlari olib borildi. Bu ish V.S. Korsakov tomonidan 60-yillarning boshlaridan boshlab xududda olib borilgan 1:25000 miqyosdagi geologik xaritalash ishlarining davomi va umumlashtirilishi bo'ldi. Tadqiqotlar jarayonida Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari ikkita – Zarafshon-Oloy va

Rasm. 3. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari stratigrafik sxemasi (R.S. Xan va bsh.2006y bo'yicha mualliflar tomonidan tuzildi.)

2019-2022 yillar davomida Zirabuloq tog'lari xududida N.R. Davlatov (Davlatov va bsh. 2022) boshchiligidagi geolog va paleontologlar guruhi stratigrafik tadqiqotlar o'tkazdilar. Ular o'z ishlarida terakbobo (S1v2 tr) svitasigacha bo'lgan svitalarni Zirabuloq tog'larining janubi va shimoli uchun alohida-alohida stratigrafik sxemalarini tuzdilar, yotqiziqlardan yangi topilgan konodontlar va boshqa organik qoldiqlarga asoslangan holda mintaqaning ancha batafsil, ba'zi kamchiliklardan holi bo'lmada yangi stratigrafik sxemasini tuzdilar.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan taxlildan qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak Zirabuloq tog'larida tarqalgan qorachaquduq, bulyamush, katarmay, jolqir va boshqa svitalarning yoshi, xajmi va atrofdagi svitalar bilan munosabati oxirigacha ochib berilmaganligini va buning natijasida ba'zi bir svitalar turli tuzulmaviy formatsiya zonalarining kenja zonalariga kirgazilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu muammolarni bartaraf qilish uchun, kelgusida, yotqiziqlarning nisbiy yoshini aniqlovchi biostratigrafik uslublar bilan bir qatorda geokimyoviy, kosmogeologik va zamonaviy, takomillashtirilgan mutlaq yosh aniqlash uslublaridan ham foydalanish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Барковская Е.И., Корсаков В.С., Пяновская И.А., Пятков К.К. Новые данные по стратиграфии Зирабулакских гор // Узб. геол. журн.- 1966.- № 3.- С.27-33.
2. Бухарин А.К., Масленникова И.А., Пятков А.К. и др. Составление сводной геологической карты Западного Узбекистана м-ба 1:200000 по работам 1984-1990гг.: НИР.- Ташкент, Госкомгеология, 1990.
3. Лихачев Ю.А., Владимирский В.С., Малова Э.В. и др. Тектоника палеозойского фундамента Кызылкумов // Проблемы нефтегазоносности Средней Азии / Труды ВСЕГЕИ. Нов.сер.- Л.: Гостоптехиздат, 1963. Т.105.- Вып. 15.- 117 с.
4. Наливкин Д.В. Очерк геологии Туркестана. – Ташкент-М.: Акц. об-во Туркпечать, 1926.- 184 с.
5. Никифорова О.И. Брахиоподы верхнего силура среднеазиатской части СССР // Монография по палеонтологии СССР.- Л.: ОНТИ, 1937.-Т.35.-Вып.1.- С.5-62.
6. Стратиграфический словарь СССР /Под ред. Б.К. Лихарева. – М.:Гос. НТИ лит. По геол. и охр.недр, 1956. – 1280с.
7. Стратиграфический словарь СССР. Кембрий, ордовик, силур, девон. Л., «Недра», 1975. 622 стр.
8. Стратиграфический словарь Узбекистана. / Под ред. З.М. Абдуазимовой. - ГК РУз, ИМР.- Ташкент.- 2001.- 579 с.
9. Стратифицированные и интрузивные образования Узбекистана (объяснительная записка к Госгеолкарте-500) / ГК РУз, ИМР.- Ташкент.- 2000.- 541 с.
10. Садыкова Л.Р., Рахимов А.Д. Исторический обзор и современное состояние стратиграфических исследований Зирабулак-Зияэтинских гор// Геол. и мин. ресурсы.- 2022. №6. С.23-29.